

SOLIQQA TORTISHDA ADOLATLILIK TAMOYILINI AMAL QILISHI

Ismoilova Feruza Kubaymurodovna

bank moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada soliq tizimida adolatlilik tamoyilini amal qilishi haqida tushunchalar berilgan. Adolatlilik tamoyilini amalga oshirishdagi yondashuvlar alohida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: soliq, soliq tamoyillari, adolatlilik tamoyili, davlat byudjeti, soliq bazasi, soliq to‘lovchilar, ijtimoiy adolat, soliq tizimi.

Soliq tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida davlatning paydo bo‘lishi va faoliyatining davomiyligi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu o‘rinda soliq kategoriysi davlatni iqtisodiy siyosati orqali iqtisodiy voqelik sifatida yuzaga chiqishini ta’kidlash lozim. Soliq tushunchasi tor ma’noda davlat ixtiyoriga soliq to‘lovchilardan majburiy tartibda undiriladigan pul tushumlarini ifodalaydi. Ma’lumki, soliqlar bevosita davlatning paydo bo‘lishi bilan bog‘liqdir, ya’ni davlat o‘zining vakolatiga kiruvchi vazifalarni bajarish uchun moliyaviy manba sifatida soliqlardan foydalanadi.

Soliqlarning amal qilishi bu obyektivlikdir, chunki jamiyatni tashkil etuvchi barcha subyektlar ham real sektorda, ya’ni ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko‘rsatmaydi. Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki faoliyati iqtisodiy samarasiz bo‘lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarni obyektiv amal qilishini talab etadi. Aniqroq qilib aytganda jamiyatni norentabel (mudofaa, meditsina, fan, maorif, madaniyat va boshq.) va rentabel sohaga ajralishi hamda norentabel sohani moliyalashtirishning tabiiy zarurligi soliqlarni obyektiv amal qilishini zarur qilib

qo‘yadi, vaholanki, norentabel sohaning ijtimoiy xizmatlari, asosan, davlat tomonidan amalga oshiriladiki, ularni moliyalashtirish usuli sifatida yuzaga chiquvchi soliqlar ham shu tufayli bevosita davlatga tegishli bo‘ladi.

Soliqlarning amal qilishini bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida ikki holat bilan ifodalash mumkin: birinchidan, davlatning qator vazifalarini mablag‘ bilan ta’minlash zarurligi, ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari. Soliqlarning funksiyasini o‘rganish ularning iqtisodiyotdagi rolini ko‘rsatib bersa, soliqqa tortish tamoyillari soliq munosabatlarini amaliyotda tashkil etish, soliqqa tortish, uni undirish amaliyotining mazmunini ochib beradi. Ko‘plab iqtisodchilar soliqqa tortish iqtisodiyotning ravnaqiga olib kelishi mumkin bo‘lgan tamoyillarni qayd etishgan.

Soliqqa tortish tamoyillarini A.Smit o‘zining «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari» nomli kitobida (1776) ilk bor asoslab bergen:

1. Davlat fuqarolari davlat xarajatlarini qoplashda o‘zлari hukumat muhofazasida foydalanayotgan daromadlariga muvofiq tarzda qatnashishlari lozim.
2. Har bir odam to‘laydigan soliq aniq belgilab qo‘yligan bo‘lishi kerak, bunda o‘zboshimchalik ketmaydi. Soliq miqdori, to‘lanadigan vaqt va tartibi uni to‘lovchiga ham,boshqa har qanday odamga ham birday aniq va ma’lum bo‘lishi zarur.
3. Har bir soliq to‘lovchiga har jihatdan qulay bo‘lgan vaqtida va tartibda undirilishi kerak.
4. Har bir soliq shunday tarzda o‘rnatalishi kerakki, bunda soliq to‘lovchining hamyonidan ketadigan pul davlat budgetiga kelib tushadigan mablag‘ga nisbatan ortiq bo‘lishiga mumkin qadar yo‘l qo‘yilmasin.

Soliq solishningadolatliligi - har bir jismoniy va yuridik shaxs olingan foyda, daromadga qarab soliq to‘lashi shart. Soliqlar va yig‘imlar kamsituvchi bo‘lishi mumkin emas va ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy yoki boshqa shunga o‘xshash mezonlar asosida boshqacha qo‘llanilishi mumkin emas. Mulkchilik shakliga, jismoniy shaxslarning fuqaroligiga yoki kapitalning kelib chiqish joyiga qarab tabaqlashtirilgan soliq stavkalarini, soliq imtiyozlarini belgilashga yo‘l qo‘ymaydi.

Soliqqa tortishning adolatlilik tamoyiliga muvofiq, soliqlar jamiyat tomonidan oqilona va adolatli deb tan olingan umumiy obyektiv qoidalarga binoan belgilanishi lozim. Soliqa tortishning adolatlilik tamoyili asosiy guruhdagi soliqa tortish tamoyillariga bo‘linadi. Bularni ikki guruhga bo‘lgan holda o‘rganish maqsadga muvofiqli. Bunda gorizontal va vertikal adolatni bir-biridan farqlash lozim. Gorizontal adolat tamoyili daromad olishning turli sharoitlarida soliq to‘lovchilarga nisbatan soliqa tortishning taxminan teng shartlarini qo‘llashni ko‘zda tutadi. Vertikal adolat deganda, xo‘jalik yuritishning birmuncha og‘ir sharoitlarida ishlayotgan subyektlar uchun soliqa tortishning bir qadar yumshoqroq shartlarini, yengil daromad olish imkoniyatiga ega bo‘lgan subyektlar uchun esa og‘irroq shartlarni qo‘llash tushuniladi. Soliqlarning rag‘batlantirish funksiyasini bajarish doirasida ikkinchi tamoyil buzilishi mumkin. Masalan, iste’mol tovarlari ishlab chiqarishni rag‘batlantirish maqsadida ularni ishlab chiqarish bo‘yicha soliqa tortishda bir qadar imtiyozli shartlar yoki aksincha, vino-aroq va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilishni cheklash uchun ulardan olinadigan egori soliqlarning yuqori stavkalari belgilangan hollar ham bo‘ladi.

Amaldagi “**Soliq kodeksi**”ning 10-moddasiga asosan “**Adolatlilik tamoyili**”ga quyidagicha ta’rif berilgan: Soliqlar va yig‘imlar kamsitish xususiyatiga ega bo‘lishi hamda ijtimoiy, irqiyl, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo‘llanilishi mumkin emas.

Mulkning shakliga, jismoniy shaxslarning fuqaroligiga yoki kapitalning kelib chiqish mamlakatiga qarab farqlangan soliq stavkalarini, soliq imtiyozlarini yoki boshqa afzallikkarni belgilashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Shuningdek, fuqarolarning o‘z konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to‘sinqlik qiladigan soliqlarni belgilashga yo‘l qo‘yilmaydi⁸.

Adolatlilik tamoyili — daromadlari va hukumat dasturlaridan foydalanish darajasi bo‘yicha teng bo‘lgan kishilar teng miqdorda soliq to‘lashi zarur⁹.

⁸ <https://lex.uz/docs/-4674902>

⁹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Soliq>

Ijtimoiy adolat tamoyilini amalga oshirishga turlicha yondashuvlar bo‘lishi mumkin. Agar soliqlarni to‘plangan soliqlar hisobidan ro‘yobga chiqariladigan davlat dasturlaridan keyinchalik foyda ko‘radigan shaxslar to‘lasa, u holda adolatli deb hisoblanadi. Aytaylik, respublika yo‘l jamg‘armasiga tushadigan mablag‘ni davlat katta yo‘llarni ta’mirlashga yoki qurishga sarflasa, bundan jamg‘armaga

ajratmalarni to‘lovchilarning o‘zлari-avtomobil egalari naf ko‘radi. Biroq bunday yondashuvni keng miqyosda amalga oshirishning iloji bo‘lmaydi. Huquq-tartibotni mustahkamlash, maorifni rivojlantirish, atrof-muhitni qo‘riqlashdan aniq ravishda kim ko‘proq foyda ko‘rishi qanday qilib hisoblab chiqish mumkin? Hatto bepul sog‘lijni saqlash dasturlaridan, asosan, ko‘p bolali oilalar, keksa va

nochor fuqarolar foydalanishlari aniqlab chiqilgan taqdirda ham ana shu maqsadlar uchun maxsus soliqlarni aynan ularning o‘zidan undirishni talab qilish adolatdan bo‘lmaydi, albatta.

Amaliyotda boshqacha yondashuv birmuncha kengroq qo‘llaniladi, unga ko‘ra to‘lov qobiliyati tamoyili asos qilib olinadi: soliq to‘lovchining daromadi qanchalik yuqori bo‘lsa, undan shuncha ko‘p miqdorda soliq undiriladi. Bu gapning ma’nosи shuki, badavlat odamlar bepul maktab maorifi, milliy mudofaa, sog‘lijni saqlash va boshqa sohalar uchun bir qadar yuksak iqtisodiy mas’uliyatni his etishlari lozim, chunki ular kam daromadlilarga nisbatan ko‘proq to‘lashga qodirdirlar. Aslini olganda, o‘ziga to‘q kishilar ta‘lim berish va xizmat ko‘rsatish yaxshiroq yo‘lga qo‘yilgan maktab va shifoxonalarni tanlaydilar. Bunday to‘lovqobiliyati konsepsiysi AQSH soliq siyosatida keng tarqalgan.

Biroq amaliyotda soliqqa tortishning mazkur konsepsiysi tez-tez jiddiy qiyinchiliklarga duch kelib turadi. Yiliga 100 ming dollar daromad oladigan kishi yiliga 10 ming dollar daromad oladigan kishiga nisbatan ko‘proq soliq to‘lashga qodir, degan fikrga qo‘shilish mumkin. Biroq bunda birinchi kishi ikkinchisiga qaraganda aynan necha baravar ko‘p soliq to‘lash imkoniyatiga ega, degan masala noaniqidir. Badavlat odam o‘zining daromadidan o‘sha hissani va mutlaq katta summani to‘laydimi yoki soliq sifatida umuman ko‘proq hissani to‘laydimi? Afsuski,

aniq bir odamning soliq to‘lash imkoniyatlarini o‘lchash uchun ilmiy asoslangan qandaydir usullar mavjud emas.

Soliqqa tortishdagi adolat tamoyili ba’zi hollarda taqsimotdagi ijtimoiy adolat tamoyili ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Shuni ta’kidlab o‘tish o‘rinlikni, bu tamoyilni daromadlarni teng ravishda taqsimlash, baravarlashtirish deb tushunmaslik kerak. Qonun oldida tenglikka rioya etilishi, ijtimoiy mumtozlikka, irq va dinga munosiblikka asoslangan imtiyozlarning bekor qilinishi, inson asosiy huquqlarga birday ega bo‘lishi kabi tenglik tamoyillari bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilgan va bu tamoyillar qadriyatlarning ijtimoiy tizimida qat’i amal qilmog‘i lozim. Moddiy tenglik, ya’ni daromadlar, mulk, iste’mol sohasidagi tenglik haqida gap ketadigan bo‘lsa, aytish kerakki, bunday tenglikka erishib bo‘lmaydi. Davlat va jamiyat barcha fuqarolar yaxshi hayot kechirishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib berishlari kerak, albatta, soliqqa tortish tizimi esa istiqbolga mo‘ljallangan rejada aholining farovonligini umumiy tarzda amalga oshirish orqali jamiyat quyi qatlamlarining ahvoli izchil ravishda yaxshilanib borishiga ko‘maklashmog‘i zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – T.:«Adolat», 2008-y.
- 2.Vahobov A.V, Jo‘rayev A.S.Soliqlar va soliqqa tortish Toshkent: Sharq, 2009.
— 448 b.
- 3.Jo‘rayev A., Meyliyev O., Safarov . Soliq nazariyasi — T.: TMI, 2004. — 210 b.
4. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2005 .544 b
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Soliq>